

**UDK:636.592:577.1:615**

## **KURKALAR JIGARI VA QON ZARDOBIDAGI A VITAMIN MIQDORIGA GOSSIPREN IMMUNOMODULYATORNING TA'SIRI**

**Salimov Sh.T.**

**Safin M.T.**

**Ibragimov D.**

**Eshimov D.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada kurkalarning qon zardobi va jigari tarkibidagi retinol miqdoriga gossepren immunomodulyatorining ta'sir doiralari o'rganilgan.

**Annotatsiya.** In the article, the effects of the gossepren immunomodulator on the amount of retinol in the blood serum and liver of turkeys were studied.

**Kalit so'zlar.** Jo'ja, A vitamin, qon, zardob, spektrofotometr, probirka, kurka, jigar, immunomodulyator.

**Keys.** Chicken, vitamin A, blood, serum, spectrophotometer, test tube, turkey, liver, immunomodulator

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qator ishlab chiqqan qarorlariga asosan mamlakatimizda aholini parxezbop go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida chorvachilikning eng serdaromad sohalaridan biri bo'lgan kurkachilikning ko'pgina shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida boqilib kelinmoqda. Ularning hayotchanligini oshirish maqsadida va turli kasalliklariga qarshi organizmning rezistentlik darajasini oshirish orqali mahsuldorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida mahalliy xom ashyolardan sintezlash yo'li bilan olingan Gossipren preparatning kurkalar qon zardobi hamda jigar tarkibidagi A vitamin miqdoriga ta'sir doiralarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

**Materiallar va metodlar.** Laboratoriya tajribalarini o'tkazish maqsadida mahalliy O'zbek kurka zotidan 20 bosh olib kelinib 1.5 oyligida ularga 4 ta guruh tuzilib har biriga 5 boshdan qilinib, jumladan birinchi guruh qiyosiy nazorat guruhi bo'lib tajriba oxirigacha xo'jalik ratsioni asosida oziqlantirildi. Ikkinchi tajriba guruhining jo'jalariga Gossipren immunomodulyatoridan 500 ml/kg oziqaga qo'shib 40 kun davomida berildi. Uchinchi tajriba guruhidagi kurka jo'jalariga esa biosupervit NEO vitaminli kompleksidan 0.3 ml/l suv bilan 10 kun davomida ichirildi. To'rtinchi tajriba guruhidagi kurka jo'jalariga esa xitozan 50-50 gidroxinonapatit immunomodulyatoridan 5 mg/kg oziqasi orqali tajriba oxirigacha berildi. Qo'llanilgan bioaktiv moddalarning samaradorlik ko'rsatkichlari kurkalarning jigar va qon zardobidagi Retinol miqdorining ta'siriga qarab baholandi. Tajribaning 10, 20, 30, 40 kunlari har guruhdan 3 boshdan so'yib, jigar va qon zardobi ajratib olib, ular tarkibidagi Retinol miqdori spektrometrik usulda (I.A. Besseyeva va A.A. Anisovlar 1969) takomillashgan qo'llanmasiga asosan aniqlandi. Tajribada olingan raqamlarga S. I. Lyutenskiy uslubi bo'yicha ebatistik ishlov berildi. Olingan natijalar olib borilgan tajribalarning natijalari shuni ko'rsatadiki, ikkinchi guruhdagi jo'jalar

Gossipren immunomodulyatorini 500 mg/kg ozuqasi bilan boqilganlarida tajribaning 10-20-30-40-kunlari jigar tarkibidagi Retinol miqdori 5,0 -5.3-5.4 6.6%larga qon

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi	Tekshiruv kunlarida jigar tarkibidagi A vitamin miqdori			
				10	20	30	40
1	Qiyosiy nazorat	-	-	98.2± 1.30	109.52± 1.45	120.72± 1.74	137.19± 2.55
2	Tajriba	Gossipren	500 mg/gr ozuqa bilan	103.16± 1.25+5	115.42± 1.30+5.3	127.31± 1.55+5.4	146.27± 1.47+6.6
3	Tajriba	Biosupervit NEO	0.3ml/l suv bilan 10 kun	105.12± 1.17+7.0	118.15± 1.24+7.8	132.41± 1.39+9.6	148.19± 1.35+8.0
4	Tajriba	Xitozan (XZGA 50-50)	5 mg/kg ozuqa bilan	102.19± 1.21+4.0	114.13± 1.30+4.1	126.17± 1.27+4.5	145.43± 1.14+6.0

zardobida esa 5.9-6.2-7.1-11.9%larga, uchinchi tajriba guruhidagi jo'jalar Biosupervit NEO vitaminli kompleksi 0.3 ml/l suv orqali 10 kun davomida boqilganlarida jigar tarkibidagi A vitamin miqdori 7.0-7.8-9.6-8.0% qon zardobidagi Retinol miqdori 8.0-10.6-13.0-14.2%larga va to'rtinchi tajriba guruhidagi kurka jo'jalariga ritozandan 5 mg/kg oziqa orqali tajriba oxirigacha berilganida jigar tarkibidagi Retinol miqdori 4.0-4.1-4.5-6.0%larga hamda qon zardobi tarkibidagi miqdori esa 5.1-5.6-6.0-8.5%larga qiyosiy nazorat guruhidagi jo'jalar organizmidagi Retinol ko'rsatkichlariga nisbatan ko'p ekanligi aniqlandi. Tajribada olingan natijalar 1- va 2- jadvallarda keltirilgan.

### **Gossipren immunomodulyatorining jigar tarkibidagi A vitamin miqdoriga**

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi	Tekshiruv kunlarida jigar tarkibidagi A vitamin miqdori			
				10	20	30	40
1	Qiyosiy nazorat	-	-	1.17± 0.05	1.60± 0.07	1.98± 0.09	2.10± 0.05
2	Tajriba	Gossipren	500 mg/gr ozuqa bilan	1.24± 0.07	1.70± 0.03	2.12± 0.07	2.35± 0.08
3	Tajriba	Biosupervit NEO	0.3ml/l suv bilan 10 kun	1.26± 0.03	1.77± 0.14	2.26± 0.07	2.40± 0.03
4	Tajriba	Xitozan (XZGA 50- 50)	5 mg/kg ozuqa bilan	1.23± 0.03	1.69± 0.07	2.10± 0.03	2.28± 0.07

**ta'siri (M±m).**

### **Gossipren immunomodulyatorining qon zardobi tarkibidagi A vitamin miqdoriga ta'siri (M±m).**

**Xulosa.** Tajribada qo'llanilgan barcha bioaktiv moddalar kurkalarning jigar va qon zardobi tarkibidagi A vitamin miqdoriga ijobiy ta'sir qilgan ekan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Душенко А. А. Витамин А . Обмен и функции. 1989
2. Ибрагимов Д. Влияние кокцидиозной инвазии на содержания витамина А в печени и сыворотке крови экспериментально зараженных цыплят. Ленинград 1990.

3. Векслер И.Г. Сравнительное изучение влияния некоторых неспецифических стимуляторов на иммунный ответ организма. Бол. экепер, биол., 1980, №7, 0.64-67.

4. Кибинов В.И. Применение лизосомально-катионного теста.- Ветеринария, 1983, № 8, 30 с.

5. Бухарин О.В., Волков А.Н. Влияние комплексной терапии с применением антибиотиков, сульфаниламидных и стимулирующих препаратов на естественную резистентность организма больных дизентерией. - Антибиотики, 1980, \$ 3, С.226.